Yangi barpo etilayotgan bog‘lar, tokzorlar va tutzorlar uchun yer solig‘i imtiyozlarini takomillashtirish orqali hududlar soliq salohiyatini oshirish

Ismoilov Muslimjon Qambarali o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Soliq va soliqqa tortish” kafedrasi katta o‘qituvchisi
ORCID: 0009-0003-2598-6240
E-pochta: muslimjonsoliq1804@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada yangi barpo etilayotgan bog‘lar, tokzorlar va tutzorlar uchun yer solig‘i bo‘yicha amaldagi imtiyozlarning hududlar soliq salohiyatiga ta'siri ilmiy jihatdan baholangan. Yer solig‘i bo‘yicha amaldagi tartibning mahalliy budjet daromadlari shakllanishiga ta'siri tahlil qilinib, fiskal desentralizatsiya tamoyillari asosida hududlar soliq salohiyatini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy taklif ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: hududlar soliq salohiyati, yer solig‘i, fiskal salohiyat, soliq imtiyozlari, mahalliy budjet, fiskal desentralizatsiya, yer resurslari, soliq bazasi.

Enhancing Regional Tax Capacity through the Improvement of Land Tax Incentives for Newly Established Orchards, Vineyards, and Mulberry Plantations

Ismoilov Muslimjon Qambarali o‘g‘li,
Tashkent State University of Economics,
Senior lecturer of the department "Taxes and Taxation"
ORCID: 0009-0003-2598-6240
e-mail: muslimjonsoliq1804@gmail.com

Abstract

This article provides a scientific assessment of the impact of the current land tax incentives for newly established orchards, vineyards, and mulberry plantations on regional tax capacity. It analyzes the effects of the existing land tax incentive framework on the formation of local budget revenues and develops a scientific and practical proposal aimed at enhancing regional tax capacity based on the principles of fiscal decentralization. The proposed approach seeks to strengthen the revenue base of local budgets while maintaining investment incentives in the agricultural sector.

Keywords: Regional tax capacity; land tax; fiscal capacity; tax incentives; local budgets; fiscal decentralization; land resources; tax base.

Kirish

Bugungi kunda dunyo mamlakatlarida fiskal siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri mavjud iqtisodiy resurslarni budjet daromadlariga maksimal darajada safarbar etish orqali hududlarning fiskal salohiyatini oshirish hisoblanadi. Xalqaro amaliyot shuni ko‘rsatadiki, mahalliy budjetlarning moliyaviy mustaqilligi, avvalo, mavjud soliq bazasidan samarali foydalanish darajasiga bog‘liq. O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligini diversifikatsiya qilish, eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish hamda bog‘dorchilik va uzumchilikni rivojlantirish davlat agrar siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu maqsadda qator soliq imtiyozlari joriy etilgan.

Biroq hududlar soliq salohiyati nuqtai nazaridan mazkur imtiyozlarning fiskal samaradorligini baholash alohida ilmiy tadqiqotlarni talab etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-dekabrdagi PF-223-son Farmoni bilan hududlarda iqtisodiy o‘sishni jadallashtirish, mahalliy budjetlarning daromad bazasini kengaytirish hamda mahalliy hokimliklarning fiskal manfaatdorligini oshirish davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri etib belgilandi. Farmonda 2025-yildan boshlab aylanmadan olinadigan soliq, yuridik shaxslarning mol-mulk solig‘i, yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i hamda ayrim boshqa tushumlarni to‘liq yoki qisman tuman (shahar) budjetlariga o‘tkazish nazarda tutilgan. Bu esa hududlarning o‘z daromad manbalarini kengaytirishga xizmat qiluvchi muhim institutsional islohot hisoblanadi[1].

Natijalar va muhokama

2020-yil 1-yanvardan kuchga kirgan yangi tahrirdagi Soliq kodeksiga muvofiq, yangi barpo etilgan bog‘lar, tokzorlar va tutzorlar egallagan yer uchastkalari daraxt qator oralari qishloq xo‘jaligi ekinlari bilan band bo‘lishidan qat’i nazar 3 yil muddatga yer solig‘idan ozod etildi. Mazkur imtiyozning joriy etilishidan asosiy maqsad bog‘dorchilik va uzumchilik tarmoqlarini rivojlantirish, yangi investitsiyalarni jalb etish hamda ko‘p yillik plantatsiyalarni kengaytirishni rag‘batlantirishdan iborat bo‘ldi. Shu bilan birga, ushbu davrda mazkur yer uchastkalari mahalliy budjet daromadlarini shakllantirishda vaqtinchalik ishtirok etmadi.

2021-yilda 2020-yilda joriy etilgan tartib o‘z kuchida saqlanib qoldi. Yangi barpo etilgan bog‘lar, tokzorlar va tutzorlar joylashgan yer uchastkalariga nisbatan 3 yillik yer solig‘i imtiyozi amal qildi. Ushbu tartib qishloq xo‘jaligini qo‘llab-quvvatlash va investitsion jozibadorlikni oshirishga xizmat qilgan bo‘lsada, mahalliy budjetlar yer solig‘i tushumlarining ma’lum qismini ololmasligiga sabab bo‘ldi.

2022-yilda Soliq kodeksining 428-moddasiga kiritilgan o‘zgartirishlarga muvofiq, yangi barpo etilgan bog‘lar, tokzorlar va tutzorlar uchun yer solig‘idan ozod etish muddati 3 yildan 5 yilgacha uzaytirildi. Ushbu o‘zgarish intensiv bog‘dorchilik, uzumchilik va boshqa ko‘p yillik plantatsiyalarni rivojlantirishni yanada faol qo‘llab-quvvatlashga qaratildi. Biroq imtiyoz muddatining uzaytirilishi natijasida mahalliy budjetlarning yer solig‘i bazasi yanada uzoq muddat davomida shakllanmay qoldi.

2023-yilda 2022-yilda joriy etilgan tartib o‘zgarishsiz saqlanib qoldi. Yangi tashkil etilgan bog‘lar, tokzorlar va tutzorlar 5 yil davomida yer solig‘idan to‘liq ozod etildi. Mazkur yondashuv qishloq xo‘jaligiga investitsiyalarni rag‘batlantirish va plantatsiyalar maydonini kengaytirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan bo‘lsada, hududlarning fiskal salohiyati nuqtai nazaridan foydalanilayotgan yerlarning mahalliy budjet daromadlariga qo‘shayotgan hissasi cheklanganligicha qoldi.

2024-yilda ham yangi barpo etilgan bog‘lar, tokzorlar va tutzorlar uchun 5 yillik to‘liq yer solig‘i imtiyozi amalda saqlanib qoldi[2].

Hududlar soliq salohiyatini baholash nuqtai nazaridan mazkur tizimda quyidagi muammolar mavjud edi:

Birinchidan, yangi tashkil etilayotgan bog‘lar va tokzorlar iqtisodiy resurs sifatida faol foydalanilayotgan bo‘lsa-da, ularning fiskal samaradorligi muntazam monitoring qilinmagan. Bu esa yer resurslarining hudud soliq salohiyatiga qo‘shayotgan hissasini to‘liq aniqlash imkonini cheklagan.

Ikkinchidan, mahalliy budjetlar uchun yangi yerlarning iqtisodiy muomalaga kiritilishi bilan budjet daromadlari o‘rtasidagi bog‘liqlik yetarli darajada baholanmagan. Vaholanki, xalqaro tajribada yer resurslari hududning asosiy fiskal aktivlaridan biri sifatida qaraladi.

Uchinchidan, amaliyotda soliq imtiyozlarining samaradorligi ko‘proq imtiyoz berish fakti bilan baholanadi, biroq ularning hudud iqtisodiyoti, yangi ish o‘rinlari, investitsiyalar va budjet daromadlariga ta'siri kompleks tahlil qilinmagan.

To‘rtinchidan, hududlar soliq salohiyatini baholash metodologiyasi hali ham asosan amalda undirilgan soliq tushumlariga tayanadi. Natijada foydalanilmagan fiskal zaxiralarni aniqlash imkoniyati cheklanmoqda.

OECDning Fiscal Federalism 2022: Making Decentralisation Work hisobotida mahalliy budjetlarning fiskal barqarorligi mavjud iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish bilan bevosita bog‘liqligi ta’kidlangan. Hisobotda yer resurslari, ko‘chmas mulk, mahalliy tadbirkorlik va investitsiyalar hududlar fiskal salohiyatini shakllantiruvchi asosiy omillar sifatida e’tirof etiladi[3].

Xalqaro valyuta jamg‘armasi (IMF) tomonidan ishlab chiqilgan Tax Capacity konsepsiyasiga ko‘ra, hududning iqtisodiy salohiyati mavjud soliq tushumlaridan emas, balki mavjud iqtisodiy resurslardan kelib chiqib baholanishi lozim. Demak, iqtisodiy muomalaga jalb etilgan har bir yer uchastkasi potensial soliq bazasining elementi sifatida qaraladi[4].

Richard M. Bird hamda Roy Bahlning fiskal desentralizatsiya bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarida mahalliy budjetlarning daromad shakllantirishdagi manfaatdorligini oshirish hududlarning iqtisodiy rivojlanishini jadallashtiruvchi muhim omil sifatida baholanadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, yer resurslaridan foydalanishni rag‘batlantirish bilan bir qatorda, mahalliy budjetlar daromadlarini shakllantirish mexanizmlarini ham takomillashtirish zarur.

Xulosa va takliflar

Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish maqsadida yangi barpo etilayotgan bog‘lar, tokzorlar va tutzorlar egallagan yer uchastkalari uchun (qator oralari qishloq xo‘jaligi ekinlari bilan band bo‘lishidan qat’i nazar) besh yil davomida 50 foiz miqdoridagi kamaytirilgan yer solig‘i stavkasini qo‘llashni davom ettirish va uning samaradorligini hududlar kesimida muntazam baholab borish taklif etiladi.

Mazkur yondashuv:

- investitsion rag‘batlarni saqlab qoladi;
- yer solig‘i bazasining uzluksiz shakllanishini ta’minlaydi;
- mahalliy budjetlarning daromad bazasini kengaytiradi;
- hududlarning foydalanilmayotgan fiskal salohiyatini bosqichma-bosqich budjet daromadlariga safarbar qiladi;
- fiskal desentralizatsiya tamoyillarini yanada kuchaytiradi.

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, yangi bog‘lar, tokzorlar va tutzorlar uchun yer solig‘i bo‘yicha joriy etilgan 50 foizlik kamaytirilgan stavka qishloq xo‘jaligini rag‘batlantirish bilan bir qatorda hududlarning fiskal manfaatlarini ham hisobga oluvchi muvozanatli mexanizm hisoblanadi. Mazkur yondashuv PF-223-son Farmonida belgilangan mahalliy budjetlarning daromad bazasini kengaytirish va hududlar fiskal salohiyatini oshirish maqsadlariga hamohang bo‘lib, hududlar soliq salohiyatini baholash metodologiyasini takomillashtirishda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-dekabrdagi “Hududlarda yuqori iqtisodiy o‘sish va aholi bandligini ta’minlashning yangi tizimini yo‘lga qo‘yish hamda bu borada mahalliy hokimliklarning roli va mas’uliyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-223-sonli farmoni. https://lex.uz/uz/docs/-7271094

[2] O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. 30.12.2019 https://lex.uz/docs/-4674902

[3] https://www.oecd.org/en/publications/fiscal-federalism-2022_201c75b6-en.html

[4]https://www.imf.org/en/publications/staff-discussion-notes/issues/2023/09/15/building-tax-capacity-in-developing-countries-535449